DUNYO TIMSOLINING JALOLIDDIN RUMIY VA O‘ZBEK SHOIRLARI IJODIDAGI AHAMIYATI

Hamdamova Maxsuma
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada dunyo timsolining Jaloliddin Rumiy hamda hozirgi o‘zbek shoirlari ijodida qanday badiiy maqsadda qo‘llanilgani hamda adabiyotshunoslikdagi ahamiyati tadqiq qilindi. Bundan tashqari, Rumiy, E.Vohidov, A.Oripov va boshqa ijodkorlarning ijod na’munasi keltirilib, undagi dunyo obrazi qiyosiy tahlil qilindi
Kalit so‘zlar: *J.Rumiy, dunyo, A.Oripov, E.Vohidov, Jamol Kamol, Amir Po‘lkan, Ikrom Otamurod , rumiyshunoslik.*

Jaloliddin Rumiyning g‘oyalari o‘zbek adabiyotiga, xususan, nasrga va u bilan bir qatorda she’riyatga ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov , Azim Suyun, Jamol Kamol, Amir Po‘lkan, Ikrom Otamurod va boshqa ijodkorlar asarlarida bu ta’sir ko‘zga tashlanadi. Quyida shoir Erkin Vohidov she’riyatining Jaloliddin Rumiy g‘oyalari aks etgan ayrim o‘rinlarni tahlil qilamiz.

Qadimdan odamlar dunyo mohiyatini ilg‘ashga va uni ta’rif tavsiflashga harakat qilgan. Uni ko‘pincha ko‘chma ma’nolarda talqin etishgan. Bu tajriba qadimgi turkiy adabiyot na’munalaridanoq ko‘zga tashlanadi. Dastavval bunday ta’rif-tavsiflar Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarining “Annav’u solisu fi taqallibid dunyo va tag‘ayyiri ahvoliho”, ya’ni dunyoning o‘zgarib turishi haqidagi qismida uchraydi. Unda shoir dunyoni goh rabot(karvonsaroy)ga goh avrovchi ilonga, ko‘rkam toshga o‘xshatgani kuzatiladi. Jumladan, shoir “Bu ochun rabot ul tushub ko‘chkilik”, “Bu dunyo qo‘nib yana ketadigan rabotdir”, “Yilontek bu ochun yilon o‘g‘log‘u”, “Bu dunyo avraydigan ilon kabidir”, “Bu ochun ko‘r erga ko‘rumluk toshi” singari ta’riflarni keltirib o‘tgan. Mavlono dunyo haqida ham bir necha asarlarida , xususan “Ichindagi ichindadir”, “Yetti majlis”, “Nay nolasi” kabi bir necha asarlarida uning o‘tkinchiligi , dunyoga xirs qo‘ymaslik haqida bir necha misollar keltirgan. Rumiy “Dunyo olimning qiymatsiz o‘yinchog‘i, axmoqning esa qiymatli arg‘umchog‘i”,- deya dunyoga ta’rif beradi. Erkin Vohidov o‘zining “Inson” qasidasida esa Jaloliddin Rumiyning dunyo haqidagi fikrlarini davom ettirib,

Bu yorug‘ dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur?
Senga mehmonxonadur, mehmon o‘zing , mezbon o‘zing.

Erkin Vohidovning ushbu qasida bo‘lib, falsafiy ruhda yozilgan bo‘lib, insonni o‘ylantiradigan mushohadaga chorlaydigan mavzularni aks etgan. Yuqoridagi misrada Erkin Vohidov Jaloliddin Rumiyning bu o‘tkinchi dunyoga muhabbat qo‘ymaslik g‘oyasidan foydalanib, dunyoning kimga koshona-yu, kimga vayrona ekanligi , nima bo‘lganda ham bu dunyoga mehmon ham, mezbon ham inson ekanligi ta’kidlangan.
Dunyoni o‘yinchoqqa o‘xshatish hozirgi o‘zbek shoirlari ijodida ham kuzatiladi.

O‘yinchoqqa o‘chlik go‘dak odati,
Bir umr tark etmas bu zo‘r ishtiyoq

Dunyoning jamiki zebu ziynati
Aslida kattalar uchun “o‘yinchoq”.
Bilmaski, bu “qari go‘dak” ushbu choq
Dunyoning qo‘lida o‘zi “o‘yinchoq”.

Darhaqiqat, o‘yinchoqlar o‘ynash bolalarga xos odat. Shoir demoqchiki, bu tabiiy-ruhiy jarayon uning ong ostida saqlanib qoladi. Inson ulg‘ayganda ham dunyo voqea-hodisalarini goh to‘g‘ri, goh ermak bilan qabul qiladi. Ammo uni “o‘yinchoq” deb bilganlar o‘z-o‘zini aldab yashaydi. Demak, odam o‘zining nega dunyoga kelganini anglashi shart. Toki, hech kim dunyoning qo‘lida “o‘yinchoq” bo‘lmasligi, umri o‘tib borayotganini his etmog‘i lozim. Rumiy hikmatlaridan birida “dunyo - tuzoq” deb ko‘rsatiladi: “Dunyo tuzoqdir, doni hoyu havasdir”. Bundan tashqari, mutaffakkir shoir Alisher Navoiy “o‘n sakkiz ming olam” haqida gapirgani kabi Rumiy ham har bir jondorning o‘z olami, o‘z dunyosi borligini ta’kilaydi. Shunga ko‘ra, u o‘z hikmatlarining birida “Ikkovi uchun ham osmon bitta, ammo zog‘ning dunyosi boshqa, lochinniki boshqa” deya ta’kidlab o‘tgan. Hayot qonuni shundayki, hech kim bu dunyoda abadiy emas, balki o‘tkinchidir. Shuni inobatga olish lozimligini eslatish maqsadida Rumiy insonlarga qarata “Unutma, inson dunyolarga hokim bo‘lar, lekin har doim kichkinagina qalbga asirdir” deb aytadi va o‘zidan kelib chiqib, “Butun dunyoni qidirib, go‘zal xulqdan ko‘ra yaxshiroq layoqatni topmadim”, – deydi. Folklordan boshlab dunyo ikkiga, u dunyo (boqiy dunyo, ruhlar olami) hamda bu dunyo (foniy dunyo, real olam)ga bo‘lingan holatda tasavvur qilinadi. Bu haqda bitilgan she’riy satrlar ham mavjud. Ulardan biri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub:

Bu dunyo, u dunyo –
Ikki ayri bog‘,
Kelib ketgusimiz
Aylab sayribog‘.

Ko‘rinyaptiki, keltirilgan satrlarda u va bu dunyo ikkita bog‘ga o‘xshatilmoqda. Inson hayoti esa shu ikkala bog‘ orasida kechgan sayrdek tavsiflanmoqda. Bu dunyolar ayri bo‘lsa-da, bir-birining mantiqiy davomi hisoblanadi. Shuning uchun buni ifodalash uchun “tutash olamlar” birikmasi qo‘llanadi. Adabiyotda “tutash olamlar” degan tushuncha ostida bu yorug‘ dunyo va abadiyat dunyosi anglatiladi. Ularni shoir ikkita ayrilgan bog‘ga qiyos etar ekan, insonning bu yerga sayri vaqt bilan bog‘liq bo‘lishini e’tiborga olib, “inson bu dunyoda mehmon” ifodasini qo‘llaydi. Bu dunyodagi inson hayotini sayribog‘ deb ataydi. Yana bir to‘rtligida shoir dunyoni daryoga mengzaydi va undan kema yasab o‘tmasa, cho‘kish ehtimolidan ogohlantiradi:

Dunyo bir daryodir, yaxshiliklardan
Kema yasab, undan suzib o‘tgaysen.

Rumiy bu dunyoni yolg‘onlar urchigan dunyo deb atab, uni tozalashga undaydi. Bundan anglashiladiki, yolg‘on dunyoga zid bo‘lgan u dunyo – chin dunyo ham mavjud. yoki Rumiy o‘z ruboiylaridan birida dunyoni jonlantirgan holda “Qil yaxshilik – yaxshilikni bilgay dunyo” degan da’vat bilan boshlagan. Yana bir ruboiysida esa shoir xo‘baxloq yorni ko‘rgan oshiq bu dunyoga taloq qo‘yajagini ta’kidlaydi:

Har kim seni ko‘rsa agar, ey xo‘b axloq
Shu lahzada qilgay u bu dunyoni taloq.

Oftob kabi chehrang qoshida dunyoda
Na oyda tarovat, na Zuhaldir porloq.

Shoir o‘z ruboiylarida uzun umr ko‘rgan insonni “dunyosi uzun”deb murojaat qiladi. Ularda “dunyo ishi”, “dunyo tomi”, “dunyo domi” kabi birikmalarini qo‘llaydi. Aksariyat shoirlar bu sinovli dunyoda adashmaslik kerakligini uqtiradi. Bunda murosa qilib yashash ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar:

“Murosayi dunyo” degan gap – haq gap,
O‘zgartirib bo‘lmas obi havoni.
Nima qilib bildi maymundek sakrab,
Iskandar egallab yarim dunyoni?!

Sirojiddin Sayyid she’riyatida dunyoga nisbatan jodugar sifatlashi ham qo‘llanilgan. Shoir yozadi: “Tishin qayrar jodugar dunyo”.Yana bir o‘rinda Sirojiddin Sayyid “Bu dunyo aslida alvon rangli gul” desa, boshqa bir she’rida u dunyoni oq bo‘yiniga tilla zanjirlarni taqib olgan tannozga o‘xshatadi:

Oq bo‘yinli tannoz dunyo,
O‘ynar tillo zanjirlari.

Shoir dunyoni yaltiroq oltinga o‘xshatgani ham ko‘zga tashlanadi:

Ushbu dunyo yaltiroq oltin erur,
Son-sanoqsiz eri bor xotin erur.
Qanchalar erni qaro yer qildi u,
Seni ham bir kun borib doding berur.

Ushbu bandning ikkinchi misrasida dunyo son-sanoqsiz eri bor xotinga ham qiyoslanayotirki, bu bilan uning “bevafo dunyo” sifati ochiladi. Rauf Parfi ham dunyo kabi umrni yombi, ya’ni quyma oltinga tenglashtirgani va bu bilan umrni behuda, mayda-chuydalarga o‘ralashib o‘tkazmaklik kerakligidan ogohlantirishga uringani anglashiladi:

Umr – yombi oltin, bug‘doy doniday
Maydalama uni tegirmonlarda.

Rauf Parfi dunyoni “o‘qilmagan kitob” deb ham tavsiflaydi va uni ohang varaqlashini ta’kidlaydi:

Ohang varaqlaydi dunyoni,
Dunyo – o‘qilmagan bir kitob.

Dunyo ta’rifi o‘zbek ijodkorlarining yaratgan nasriy yoki she’riy asarlarida sarlavhaga ham ko‘tarilgani kuzatiladi. Masalan, Odil Yoqubov o‘zbek mutaffakkirlari Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sino haqida yozilgan tarixiy romanini “Ko‘hna dunyo” nomi bilan atagan bo‘lsa, Ulug‘bek Hamdam she’riy saylanma to‘plamini “Eski dunyo va yangi men” deb nomlagan. Uning bu to‘plamidan o‘rin olgan ba’zi she’rlarida “Dunyo – bu asrandi bo‘ridir, jonim”, “Bu dunyo hayoti tor qolip ekan”, “Dunyo – jinni, bu dunyo – jinni!”, “Dunyo so‘rilaverib qorayib ketgan siyna”, “To‘xtab qolgan suv – dunyo”, “Postmodern dunyo – qurama dunyo, qurama-yu ham yamoq dunyo”, “Dunyo, dunyo, oq dunyo, Oydek yolg‘iz, toq dunyo” kabi ta’rif-tavsiflar berilgan. Har bir ijodkor aslida dunyo ulug‘vorligini tan oladi, ammo bundan qat’iy nazar unda insonning qadr-qimmati g‘oyasini ilgari suradi. Dunyo tushunchasi orqali insonlarga xos

safsatabozlikka qarshi chiqadi. Chunki hamma dunyoni o‘zgartirishga harakat qiladi, holbuki, o‘zini o‘zgartirishi haqida o‘ylashi lozim. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimdan hozirgacha, folklordan yozma adabiyotgacha ijodkorlar dunyoni bilishga intilib yashagan. U haqda anglaganlari asosida ta’rifini keltirishga intilishgan. Natijada adabiyotda dunyoning turli sifatlashlari, metaforik nomlari paydo bo‘lgan.

Yuqoridagi tahlillardan shuni anglab yetdikki, dunyo haqida kimdir karvonsaroy desa yana kimdir bevafo yor, o‘yinchoq, oltin va ushbu ta’riflarni ko‘plab davom ettirishimiz mumkin. Ushbu tavsiflarning yakuni yo‘q. Ammo ham mumtoz, ham zamonaviy adabiyotga birdek mos keladigan ta’rif Jaloliddin Rumiyning “Dunyo olimning qiymatsiz o‘yinchog‘i, axmoqning esa qiymatli arg‘umchog‘i “ nomli hikmati o‘rinli deb bilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Сирожиддин Саййид. Кўксимдаги зангорларим. Шеърлар. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 36-71.
2. Рауф Парфи. Хотирот. Шеърлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёт, 1975. – 80
3. Улуғбек Ҳамдам. Эски дунё ва янги мен: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 416 б.
4. Darmonoy O‘rayeva. Rumiy va hozirgi o‘zbek shoirlari ijodida dunyo ta’rifi.
5. Vohidov.E.Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2022.120-bet